

O'ZBEK BALET SAN'ATI GALIYA IZMAYLOVA NIGOHIDA

Asqarova Mushtariy

**O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
san'atshunoslik yo'nalishi 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14616145>**

Balet (lotin tilidan olingan bo'lib, ballo - raqsga tushaman ma'nosini anglatadi) - asar mazmuni musiqiy xoreografik obrazlar vositasi bilan ifodalanadigan sahna san'ati turi. O'zida san'atning dramaturgiya, musiqa, xoreografiya, tasviriy san'at kabi turlarini uyg'unlashtiradi, bu san'at turlarining hammasi alohida-alohida mavjud bo'lmay, Baletning sintez markazi bo'lgan xoreografiyaga bo'ysunadi. Balet librettochi, kompozitor, baletmeyster va rassom hamkorligida yaratiladi. Baletning dramaturgik asosi libretto (ssenariy)dan boshlanib, unda asarning asosiy mazmuni, g'oya, ziddiyat va harakterlari aniq belgilanadi. Libretto ko'pincha adabiy asarga asoslanib, uni musiqa va xoreografiyada gavdalantirish imkoniyati hisobga olinadi. Ssenariy asosida esa kompozitor Balet musiqasini yaratadi. Uning izchilligi, sahna ko'rinishi, parda va nomerlarga bo'linishi ssenariyda ko'rsatiladi. Musiqa faqat ssenariyni ifodalabgina qolmay, balki musiqali obrazlarning mazmuni bilan uni boyitadi. Balet musiqasi xoreografiyani yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Balet - musiqada yozilgan, xoreografiyada gavdalantirilgan drama.

Balet bu balerining chinakam mehnati bo'lib, bu san'atda yutuqlarga erishish uchun har kuni ko'p mehnat talab etilishi kerakligi demakdir.

Ehtimol, ba'zi insonlarga sahnada turli elementlarni bajarish juda ham onson ko'rinar. Hamma narsa unchalik oddiy tasavvurdagi emas. Chunki bitta balet elementini o'rganish uchun haftalar, oylar, yillar sarflash kerak.

O'zbek balet san'atining ilk balerinasini, o'zining yuksak mahorati va estetikasi bilan ajralib turgan Galiya Izmaylova 1923 yil 12 fevralda Tomsk shahrida tug'ilgan. Raqs san'atiga o'qishni balet maktabidan boshlab, so'ngra O'zbekistondagi Xoreografiya oliy maktabida davom ettiradi. 1941 yildan boshlab A.Navoiy nomli DAKT ning yakkaxon raqqosasi sifatida ishlay boshladi va yarim asrga yaqin ushbu teatrning baletmeysteri va bosh baletmeysteri sifatida ikki hissa o'zbek opera va balet san'ati rivojida o'z hissasini qo'shdi. Balerina sifatida ish faoliyatini boshlagan Galiya Izmaylova amaliy yakka tartibda sahnalashtirish jarayonlari bilan, keyinchalik esa butun bir spektaklga raqs sahnalashtirish bilan qiziqib qoladi. Galiya Izmaylova zamonaviy o'zbek xoreografiya san'atining yorqin namoyondasi sifatida, milliy va yevropa mumtoz an'alarini chuqur egallagan, o'zining iqtidori, yuqori ijrochilik mahorati bilan o'zgacha ijodiy maktab tashkil qildi. Sharq va G'arbning taniqli xoreograflari uning iqtidorini nafaqat bizning mamlakatda balki butun jahonda tan oldilar. Milliy raqslardan "Munojot", "Tanovar", "Dilxiroj", jahon milliy mumtoz asarlaridan- "Amulet lyubvi", "Layli va Majnun", "Oqqush ko'li", "Don Kixot", "Karmen", "Korsar", "Raymonda" Galiya Izmaylova timsolida yuqori darajada ijro etilib, o'zbek san'atida oltin fondidan joy olgan. Balerina mehribon murabbiy sifatida o'nglab shogirdlar yetishtirib, ularga raqs sehrini o'rgatdi. Galiya Izmaylovaning milliy madaniyat va san'ati rivojiga qo'shgan hissasi davlat tomonidan yuksak darajada baholandi. Unga 1962 yilda O'zbekiston xalq artisti, 1950 yilda Davlat mukofotlari, "Mehnat shuhrati" va "Do'stlik" ordenlari, "Shuhrat" medali topshirilgan. Galiya Izmaylova balet spektakllari uchun ham libretto yozgan. O'zbek xalq milliy raqslarida yakkaxon raqqosa, jahon xalqlari xoreografik miniatyurasi va mumtoz xoreografik balet spektakllarida xarakter

baravariga o'zini namoyish etdi. Uning birinchi mumtoz ishi namunali edi. G.Zavyalov bilan hamkorlikda 1950 yilda Chaykovskiyning "Oqqush ko'li" balet spektaklini qo'yadi. Galiya Izmaylova shuningdek 40 yaqin xalq va xarakter raqs kompozitsiyalarini yaratgandir. Hozirgi kunga kelib DavAkKatTeatrida Galiya Izmaylova sahnalashtirgan raqslar, shuningdek operada: "Samson va Dalila", "Umar Xayyam", "Pikovaya dama", "Yevgeniy Onegin", "Layli va Majnun", "Zebuniso" qo'yilib kelinmoqda. Balerining ijodiy portreti, baletning texnik va emotsional tomonlarini birlashtirgan uslubi, shuningdek, yosh avlodni o'rgatishdagi o'zgacha yondoshuvi san'atning yuqori nafisligini ko'rsatib bera olganini ko'rishimiz mumkin. Izmaylova o'zining pedagogik faoliyati orqali ko'plab yoshlarni balet san'ati bilan tanishtirib, yangi avlod balerinlarining shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Bundan tashqari, Galiya Izmaylovaning san'ati va faoliyati o'zbek baletini o'zida milliy xususiyatlar, an'anaviy elementlar bilan boyitib, shu bilan birga, klassik baletning yuksak talablariga moslashtirishga imkon berdi. Uning o'zbek baletining rivojlanishiga qo'shgan hissasi bugungi kunda ham o'zbek san'ati tarixida katta ahamiyatga ega. U baletning o'ziga xos ruhini, uning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy o'lchamlarini ham to'g'ri tushungan san'atkor sifatida yodda qolgan. Galiya Izmaylovaning yuksak texnikasi va ifodali raqs mahorati uni nafaqat o'zbek baletida, balki xalqaro balet sahnalarida ham yetakchi ijodkor nomini berdi. Balerining sahnadagi chiqishlari nafaqat baletning klassik asoslariga sodiqligini, balki zamonaviy baletga oid yangi yondashuvlarni ham o'zida mujassam etgan. San'atkorning har bir chiqishi — bu tomoshabinni bir butun hikoya orqali, ularni o'zining ichki olamiga va hayol dunyosiga mujassamlar edi.

Galiya Izmaylovaning merosi bugungi kunda ham o'zbek baletining taraqqiyotida muhim o'rin tutib, uning ijodi va pedagogik faoliyati yosh balerintlarga ilhom manbai bo'lib qoldi. Balerina 87 yoshida 2010 yil 5 oktabrda Toshkent shahrida vafot etdi.

References:

1. S.Sagatov, M.Muxamedova. "O'zbekiston madaniyati va san'ati fidoyilari", Toshkent 2019
2. Avdeyeva L. Balet Uzbekistana. T., "Adabiyot va san'at". 1973
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Balet>.